

**“Uzbekistan Airways” AJ
Kuzatuv kengashi majlisining
2022 yil “30” apreldagi
2-sonli bayonnomasi bilan
“TASDIQLANGAN”**

**“Uzbekistan Airways”
Aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashi qoshidagi**

**STRATEGIK RIVOJLANTIRISH VA
INVESTITSIYA QO’MITASI TO’G’RISIDA NIZOM**

Toshkent – 2022-y.

1-bo'lim. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o’rinlarda Jamiyat deb yuritiladi) kuzatuv kengashining Strategik rivojlantirish va investitsiya qo’mitasini to’g’risidagi Nizom (keyingi o’rinlarda Nizom deb yuritiladi) O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Jamiyat Ustaviga va Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan.
- 1.2. Nizom Strategik rivojlantirish va investitsiya qo’mitasining (keyingi o’rinlarda Qo’mita deb yuritiladi) maqomi va vakolatlarini, qo’mitaning huquq va majburiyatlarini, qo’mita tarkibini, uni shakllantirish tartibini, faoliyatini hamda Jamiyatning boshqa boshqaruv organlari bilan o’zaro hamkorligini belgilaydi.
- 1.3. Qo’mita kuzatuv kengashining nazorat funksiyalarini samarali bajarilishiga ko’maklashish maqsadida tashkil etiladi. Qo’mita Jamiyat faoliyatining strategiyasi, vazifalari va ustuvor yo’nalishlarini belgilash, dividend siyosati va jamiyat faoliyatining uzoq muddatli istiqboldagi samaradorligini baholash, jamiyatning moliyaviy ko’rsatkichlarini yaxshilash va samaradorligini oshirish, jamiyatga jalg qilinadigan investitsiyalar bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

Tranformasiya va xususiy lashtirish jarayonlarini doimiy nazorat qiladi.

- 1.4. Qo’mita tomonidan ishlab chiqilgan barcha takliflar ko’rib chiqish uchun kuzatuv kengashiga taqdim etiladigan tavsiyalar hisoblanadi.

2-bo'lim. Strategik rivojlantirish va investitsiya qo'mitasini saylash tartibi va tarkibi

- 2.1. Qo’mita 3 nafar a’zodan iborat bo’lib, ular kuzatuv kengashining barcha a’zolarining ko’pchilik ovozi bilan saylanadi.
- 2.2. Qo’mita a’zolarining vakolat muddatlari ularning kuzatuv kengashi a’zolari sifatidagi vakolatlari muddatlariga to’g’ri keladi.
- 2.3. Qo’mita tarkibiga faqat kuzatuv kengashi a’zolari saylanishi mumkin.
 - 2.3.1. Qo’mita raisi jamiyat kuzatuv kengashi mustaqil a’zolari orasidan saylab olinadi. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibida mustaqil a’zo mavjud bo’lmagan hollarda jamiyat kuzatuv kengashining amaldagi tarkibi a’zolaridan saylab olinadi.
- 2.4. Qo’mita a’zolari Jamiyat faoliyat ko’rsatayotgan tarmoq va bozor sektorining o’ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada bilishi va tegishli ish tajribasiga ega bo’lishi kerak.

2.5. Kuzatuv kengashi istalgan vaqtida Qo'mitaning istalgan a'zosining vakolatlarini biron-bir asosga ko'ra tugatishga, shuningdek, Qo'mitaning butun tarkibini qayta saylashga haqli.

2.6 Jamiyat boshqaruvi raisi va boshqaruv a'zolari Qo'mita a'zosi bo'la olmaydi.

3-bo'lim. Strategik rivojlantirish va investitsiya qo'mitasi ish tartibi

3.1. Qo'mitaga Qo'mita a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan saylanadigan rais boshchilik qiladi.

3.2. Jamiyatning korporativ kotibi/maslahatchisi (yoki Qo'mita yig'ilishida saylangan Qo'mita a'zolaridan biri, shuningdek korporativ kotib/maslahatchi bo'lмаган hollarda uning vazifasini bajaruvchi sifatida Jamiyat aksiyadorlar bilan korporativ aloqalar bo'limi mutaxassisi) Qo'mita kotibi hisoblanadi.

3.3. Qo'mita ishi majlislar shaklida amalga oshiriladi.

3.4. Qo'mita majlislari zaruratga qarab, lekin har qanday holda 6 oyda bir martadan kam bo'lмаган muddatda o'tkaziladi. Kuzatuv kengashi majlisining kun tartibiga qo'mita vakolatiga kiruvchi masalalar kiritilgan taqdirda, qo'mita majlisi kuzatuv kengashining tegishli majlisi o'tkazilishidan kamida 14 kun oldin o'tkaziladi.

3.5. Qo'mita majlislari Qo'mita raisining, qo'mita har qanday a'zosining yoki kuzatuv kengashining qarori bilan chaqiriladi.

3.6. Majlislar quyidagi shakllarda o'tkaziladi: jismoniy ishtirok etish, sirtdan ovoz berish, video va audio konferensiya.

3.7. Qo'mita majlisi, agar qo'mita a'zolari umumiyl sonining kamida oltmis foizidan ortig'i qatnashsa, majlis vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

3.8. Qo'mita kotibi yig'ilishning kun tartibini ko'rsatgan holda Qo'mita barcha a'zolariga dastlabki xabarnomani yuboradi va majlis o'tkazilishidan kamida 14 kun oldin kun tartibining har bir bandi bo'yicha barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etadi. Xabar berish Qo'mita a'zolari uchun qulay bo'lган har qanday shaklda: telefon, faks, oddiy yoki elektron pochta orqali amalga oshiriladi.

3.9. Qo'mita majlisi bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi, mazkur bayonnomaga majlisda qatnashgan barcha Qo'mita a'zolari tomonidan imzolanadi.

3.10. Qo'mita masalalarni muhokama qilish yakunlari bo'yicha yozma shaklda qarorlar qabul qiladi, ular majlisda qatnashgan barcha Qo'mita a'zolari tomonidan imzolanadi. Bunday yozma qarorlar kuzatuv kengashining navbatdagi majlisiga

tayyorgarlik ko'rish jarayonida kuzatuv kengashi raisiga yoki Jamiyat korporativ kotibiga/maslahatchisiga taqdim etiladi. Qo'mitaning har bir a'zosi o'zining alohida fikrini bildirishi mumkin, u Qo'mita qarori bilan birga taqdim etiladi.

3.11. Qo'mita majlisda qatnashayotgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi.

4-bo'lim. Strategik rivojlantirish va investitsiya qo'mitasi vakolati

4.1. Qo'mita vakolatiga quyidagi masalalar kiradi:

4.1.1. Jamiyat strategiyasi, jumladan:

4.1.1.1. Jamiyatning ustuvor vazifalari va maqsadlarini aniqlash bo'yicha Jamiyat boshqaruv raisi (va boshqaruv a'zolari) faoliyatiga rahbarlik qilish;

4.1.1.2. Jamiyatni rivojlantirishning strategik rejalarini ishlab chiqish va uning istiqbolli vazifalarini belgilash, ushbu reja va vazifalarni ko'rib chiqish, shuningdek, Jamiyat boshqaruv raisining (va boshqaruv a'zolarining) faoliyatiga rahbarlik qilish, zarur hollarda kuzatuv kengashiga tavsiyalar taqdim etish;

4.1.1.3. Jamiyat boshqaruv raisi (va boshqaruvi) bilan yaqin hamkorlikda strategik rejalashtirish tartiblari va qoidalarini ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish, shuningdek, strategik rejalashtirish jarayonlarida kuzatuv kengashining ishtirot etish tartibini tavsifovchi hujyatni ishlab chiqish;

4.1.1.4. ishlab chiqilgan strategiyani Jamiyat faoliyatining aniq rejalarida amalga oshirish;

4.1.1.5. Boshqaruv raisi (va boshqaruv a'zosi) tomonidan tavsiya etilgan Jamiyat moliyaviy manbalarining taqsimlanishini Jamiyatning strategik rejalarini va istiqbolli maqsadlariga muvofiqligini tekshirish;

4.1.1.6. Jamiyatning strategik rejasi va uzoq muddatli maqsadlarini davriy ko'rib chiqish.

4.1.2. Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'naliishlari, shu jumladan:

4.1.2.1. Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'naliishlarini, shu jumladan yangi xizmat turlari yoki yangi hududiy bozorlarga chiqish hamda mavjud xizmat turlari yoki hududiy bozorlardan chiqishni belgilashga doir ayrim strategik qarorlarni ishlab chiqish bo'yicha kuzatuv kengashining tavsiyalarini tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni taqdim etish;

4.1.3. moliyaviy rejalahshtirish va dividend siyosati, shu jumladan:

4.1.3.1. yillik va uzoq muddatli moliyaviy strategiya hamda Jamiyat tomonidan belgilangan vazifalar, shuningdek Jamiyat faoliyatining tegishli maqsadlari va asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil qilish va kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;

4.1.3.2. Jamiyatning (va tarkibiy bo'linmalarining) moliyaviy faoliyatining muhim jihatlarini, shu jumladan Jamiyatning kapitallashuvi (kredit reytingi), pul oqimi, qarzga olingan moliyaviy manbalarni jalb qilish, bo'sh mablag'larni investitsiyalash bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish. Bunday tahlil Jamiyat boshqaruv a'zolari (va kuzatuv kengashining audit bo'yicha qo'mitasi) bilan yaqin hamkorlikda amalga oshiriladi;

4.1.3.3. qarz va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish, Jamiyatning o'z balansidagi ulushlarini sotib olish yoki tasarruf etish, aksiyalarni taqsimlash yoki toifalarini o'zgartirish, kapital bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish yoki xarajatlar bo'yicha tahlil qilish va kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;

4.1.3.4. Jamiyatning dividend siyosati, dividendlarni e'lon qilish va to'lash tartibiga oid kuzatuv kengashining tavsiyalarini tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni taqdim etish;

4.1.3.5. haqiqiy kapital qo'yilmalar va samaradorlik ko'rsatkichlarining Jamiyat byudjetida ilgari tasdiqlangan summalarga muvofiqligini davriy tekshirish;

4.1.4. uzoq muddatli istiqbolda Jamiyat faoliyati samaradorligini baholash, shu jumladan:

4.1.4.1. yangi texnologiyalardan foydalanish yoki mavjud texnologiyalardan foydalanishni to'xtatish, shuningdek, Jamiyat faoliyati ko'lami va sohalarini kengaytirish uchun boshqa imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha muayyan strategik qarorlar ishlab chiqish bo'yicha tahlil qilish va kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish, shuningdek agar ushbu qarorlarni amalga oshirish xarajatlar bilan bog'liq bo'lsa, Jamiyat tovarlari va xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi va sifatini oshirish;

4.1.5. Jamiyatning investitsion jozibadorligini oshirish, jamiyatga jalb etiladigan investitsiyalar miqdorini oshirish, shu jumladan jalb qilingan investitsiyalarni o'zlashtirilishi ustidan nazorat qilish.

4.1.6. Jamiyatni qayta tashkil etish bo'yicha rejalarining bajarilishini nazorat qilish, shu jumladan:

4.1.6.1. Jamiyatni qo'shib yuborish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish bilan bog'liq ayrim strategik qarorlarni ishlab chiqish bo'yicha kuzatuv kengashining tavsiyalarini tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni taqdim etish.

4.1.7. Tranformasiya va xususiyashtirish jarayonlarini doimiy nazorat qiladi.

5-bo'lim. Strategik rivojlantirish va investitsiya qo'mitasi huquq va majburiyatlar

5.1. Qo'mita quyidagilarga haqli:

5.1.1. Jamiyat boshqaruv a'zolari, boshqa mansabdar shaxslari va xodimlaridan (shu jumladan strategiya bo'yicha maslahatchilardan) hujjatlar, hisobotlar, tushuntirishlar va boshqa ma'lumotlarni olish;

5.1.2. Jamiyat boshqaruv a'zolarini va boshqa mansabdar shaxslarini va xodimlarini, shuningdek strategiya bo'yicha Jamiyat xodimlarini o'z yig'ilishlariga kuzatuvchi sifatida taklif etish;

5.1.3. tashqi ekspertlar va maslahatchilar xizmatlaridan foydalanish;

5.1.4. zarurat tug'ilganda, shu jumladan mustaqil ekspertlar ishtirokida maxsus tekshirishlar o'tkazish;

5.1.5. o'z vakolatlari doirasida va ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda kuzatuv kengashi tomonidan belgilanishi mumkin bo'lgan boshqa vazifalarni bajarish.

5.2. Qo'mita har yili ushbu Nizomning belgilangan talablarga muvofiqligini tahlil qiladi va baholaydi hamda ushbu Nizomga Qo'mita tomonidan maqsadga muvofiq deb topilgan o'zgartirishlar kiritish bo'yicha kuzatuv kengashiga tavsiyalar beradi.

5.3. Qo'mita muntazam ravishda (har bir yig'ilishdan keyin, lekin chorakda kamida bir marta) kuzatuv kengashiga o'z faoliyati to'g'risida hisobot beradi.

5.4. Qo'mita a'zolari quyidagilarga majburdirlar:

5.4.1. Qo'mita ishida ishtirok etish va uning barcha majlislarida qatnashish;

5.4.2. tegishli sanoat va umuman iqtisodiyotdagi tendensiyalarini, axborot texnologiyalari va Jamiyatni rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa sohalardagi yutuqlarni kuzatib borish;

5.4.3. o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida ularga ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash, bunda Jamiyat faoliyatiga taalluqli ochiq bo'lmanan ma'lumotlar tushunchasi va uning tarkibi Jamiyat kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanadi;

5.4.4. mustaqil a'zo sifatidagi maqomi o'zgarganligi yoki qo'mita tomonidan qabul qilinadigan qarorlar bilan bog'liq holda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganligi to'g'risida kuzatuv kengashini xabardor qilish;

5.4.5. har yili Qo'mita va uning a'zolari faoliyatini tekshirish va baholash, shu jumladan Qo'mita tomonidan ushbu Nizomga rioya etilishini tekshirish.

6-bo'lim. Strategik rivojlantirish va investitsiya qo'mitasi a'zolarining javobgarligi

6.1. Qo'mita a'zolari o'z huquqlaridan foydalanishda va o'z vazifalarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlaydilar va belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

7-bo'lim. Strategik rivojlantirish va investitsiya qo'mitasi a'zolarini rag'batlantirish

7.1. Qo'mita a'zolarini rag'batlantirish kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq belgilanadi.

8-bo'lim. Yakuniy qoidalar

8.1. Ushbu Nizom moddalari Jamiyat kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

8.2. Ushbu Nizom qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar, Jamiatning ustaviga, Jamiatning ichki hujjatlariga o'zgartishlar va/yoki qo'shimchalar kiritilishi munosabati bilan o'zgartirilishi va/yoki to'ldirilishi mumkin.

8.3. Ushbu Nizomga o'zgartish va / yoki qo'shimchalarni tasdiqlash to'g'risidagi qaror Jamiat kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

8.4. Ushbu Nizomga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar ular kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi.

8.5. Agar ushbu Nizomning ba'zi moddalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va/yoki Jamiat Ustaviga zid kelsa, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu moddalar bilan tartibga solinadigan masalalar nuqtai nazaridan, ushbu moddalarga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar, O'zbekiston

Respublikasining amaldagi qonunchiligi va / yoki Jamiyat Ustaviga rioya qilinadi.